

**Yanglish QARSHIYEVA,**  
 Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti  
 E-mail: qarshiyevayanglish@gmail.com  
 Tel: 97-245-40-63, 95-108-01-938

*Psixologiya bo'yicha falsafa doktori, dotsent v.b. B.Norbekova taqrizi asosida*

## ANALYSIS OF AHMAD YASSAVI'S CREATION IN THE WORKS OF EASTERN THINKERS

Annotation

That is why many saints like Imam Bukhari, Imam Termizi, Moturudi, Marginani, Ahmad Yassavi, Abdulkhalik Gijduvani, Najmuddin Kubro, Bahauddin Naqshband, Khoja Ahror Vali, who are the dargahs of our science in Uzbekistan today. great attention is paid to the modern, scientific and impartial study of the scientific, religious-mystical heritage, worldview, way of life and values of our figures, intellectuals. Careful efforts are being made to spread and promote their heritage to the general public. Although a number of scientific studies have been carried out in our country on the life and sect of Ahmad Yassavi, no specific research has been carried out on the psychological aspects of his mystical views. Despite the fact that it originated in Central Asia and spread widely to different countries of the world, the Kubrovian sect has not been fully studied to this day. Ahmed Yassavi is a great person who is an example to the whole world with his extraordinary zeal and determination in the pursuit of knowledge, his courage in the path of truth, his patriotism, and his generosity. For this reason, it is necessary to comprehensively study his life path and spiritual heritage, and we have focused on these aspects in this article.

**Key words:** Ahmad Yassavi is a wise man, views of Eastern thinkers, wisdom, psychology, human being.

## АНАЛИЗ ТВОРЕНИЯ АХМАДА ЯСАВИ В ТРУДАХ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ

Аннотация

Именно поэтому многим святым, таким как Имам Бухари, Имам Термизи, Мотуруди, Маргинани, Ахмад Яссави, Абдулхалик Гиждувани, Наджмуддин Кубро, Бахауддин Накшбанд, Ходжа Ахрор Вали, которые сегодня являются даргами нашей науки в Узбекистане, уделяется большое внимание современным, научное и беспристрастное изучение научного, религиозно-мистического наследия, мировоззрения, образа жизни и ценностей наших деятелей, интеллектуалов. Прилагаются осторожные усилия по распространению и популяризации их наследия среди широкой публики. Хотя в нашей стране был проведен ряд научных исследований о жизни и секте Ахмада Яссави, конкретных исследований психологических аспектов его мистических взглядов не проводилось. Несмотря на то, что секта Кубровиан зародилась в Средней Азии и широко распространилась по разным странам мира, секта Кубровцев до сих пор до конца не изучена. Ахмед Яссави – великий человек, который является примером для всего мира своим необыкновенным рвением и решимостью в стремлении к знаниям, смелостью на пути истины, патриотизмом и щедростью. По этой причине необходимо всестороннее изучение его жизненного пути и духовного наследия, и на этих аспектах мы остановились в данной статье.

**Ключевые слова:** Ахмад Яссави-мудрец, взгляды восточных мыслителей, мудрость, психология, человек.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA AHMAD YASSAVIY IJODINING TAHLILI

Annotatsiya

Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekistonda ilm fanimizning darg'alari bo'lgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Moturudiy, Marg'inoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulkholiq G'ijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror Valiy kabi ko'plab aziz siymolarimiz, alloma mutafakkirlarimizning ilmiy, diniy-irfoniy merosi, dunyoqarashi, hayot yo'li va qadriyatlarini zamonaviy, ilmiy va xolis o'rganishga katta e'tibor qartilmoqda. Ular merosini keng xalq ommasiga yetkazish va targ'ib-tashviq etish borasida e'tiborli ishlar qilinmoqda. Mamlakatimizda Ahmad Yassaviy hayoti, tariqati borasida birmuncha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan bo'lsada, bugungacha uning tasavvufiy qarashlarining psixologik jihatlarini borasida muayyan bir tadqiqot amalga oshirilmagan. O'rta Osiyo zaminida vujudga kelib, dunyoning turli o'lkalariga keng yoyilishiga qaramasdan bugungi kungacha kubroviya tariqati to'liq o'rganilmagan. Ahmad Yassaviy ilm talabidagi favqulodda g'ayrati va qat'iyati, Haq yo'lidagi shijoati va vatanparvarligi, jo'mardligi bilan butun dunyoga o'rnak bo'lgan buyuk shaxs hisoblanadi. Shu sababli ham uning hayot yo'li va ma'naviy merosini har tomonlama tadqiq etish lozim va biz ushbu maqolada mana jihatlariga e'tibor qaratganmiz.

**Kalit so'zlar:** Ahmad Yassaviy hikmatkari, sharq mutafakkirlari qarashlari, hikmatlar, psixologiya, inson.

**Kirish.** Tasavvuf ta'limoti tarixiga nazar solar ekansiz, avliyolarga eng boy diyor Turkiston ekanligiga tan berasiz. Ana shu avliyolarning aksariyati bugungi O'zbekiston hududida yashagan. Ushbu avliyolarning jahon miqyosida mashhurligini bilganingizda aqlingiz lol qoladi. Jumladan Ahmad Yassaviy, Abdulkholiq G'ijduvoni, Najmuddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Shohi Naqshband, Xoja Ahror Valiy va boshqalar xalqimizning buyuk iftixoridirlar. Bu zotlarga atab yurtimizda muzeylar tashkil etish, ilmiy meroslarini o'rganib, xalqqa taqdim etish oldimizda turgan muhim vazifalardan biridir. Demakki, bu ulug' tuproq, olamshumul alloma, mashhur mutasavvufning buyuk va muborak tuprog'idir. Ana shunday mashhurlaridan biri Sulton ulorifin Xoja Ahmad Yassaviydurlar. Xoja Ahmad Yassaviyning tasavvuf ta'limoti tarixida tutgan o'rni g'oyatda katta, ta'sir doirasi juda keng edi. Yassaviy tariqi-suluki deyarli Markaziy Osiyoga yoyila boshlaydi. Movarounnahrndan buyuk Turkiston, Oq Edil, Qafqazgacha, Xuroson, Eron, Rumgacha, Badaxshon va Sharqiy Turkistongacha kengayib borgan edi. Asrlar davomida Yassaviy tariqi-suluki muayyan tarzda yashab keldi va kelmoqda. Ahmad Yassaviy to'g'risida dastlabki ma'lumotni, o'z davrining ulug' olimi So'fi Muhammad Donishmand (XII asr), Muhiyuddin al-Arabiy (vafoti 638G'1240) yozib qoldirgan. Undan so'nggi zamon va davr olimlari tomonidan yozilgan qo'lyozma asarlar ham bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bu qimmatbaho ilmlar insonlar kamolotida g'oyat muhim ahamiyatga ega.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston istiqloлга erishgandan keyin yassaviyshunoslikda yangi davr boshlandi. Dastlab turli gazeta va jurnallarda "Devoni hikmat"dan namunalar e'lon qilingan bo'lsa, 1990—92 yillarda uning 2 mustaqil nashri kitobxonlar qo'liga yetkazildi. Ushbu nashrlar nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa turkiy davlatlarda ham bu buyuk mutasavvifning hayoti, adabiy-ma'rifiy faoliyati, izdoshlari xizmatiga qiziqishni kuchaytirdi. 1993-yil O'zbekistonda Yassaviyga

bag'ishlab ilmiy anjumanlar o'tkazilib, ma'ruzalar matni alohida majmua shaklida chop etildi. Matbuotda Yassaviyning shaxsiyati, tariqati, she'riyatidan bahs yuritilgan maqolalar bosilib chiqdi. O'zbekistondagi bir qancha ko'cha va mahalla Yassaviy nomi bilan ataladi. Yassaviylik tariqatining asoslari «Faqrnoma» (ayrimlar Yassaviyga nisbat beradilar), «Maslakul-orifin», «Lama'ot», «Samaratul-mashoyix», «Javohir ul-abror» kabi manqaba va risolalarda aks etgan.

Yassaviy nuqtai nazarida hikmat — "ilmi laduniy", ya'ni ilmi g'aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega. Yassaviyning o'zi "Devoni hikmat" nomi bilan biron bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yassaviyga aloqasi yo'q, degan da'voni ilgari surishga asos bermaydi. So'fi Olloyor Yassaviy haqida fikr bildirib, yana shunday degan: Shariatda edi ul oftobe, Qolibdur bizga ul erdin kitobe.

«Devoni hikmat» kitob shogirdlari tomonidan tartib berilgan. Unda ilohiy ishq g'oyasi va ma'rifiy mazmun yetakchilik qiladi. Hikmatlar ma'no va mohiyat e'tibori bilan Qur'oni karim va Muhammad alayhissalom hadislariga chuqur bog'langan. «Devoni hikmat»ning 20dan ortiq nusxalari O'R FA SHI jamg'armasida saqlanadi. Asar qo'lyozmalaridan eng qadimgisi 17 asrga tegishli.

Yassaviy merosi va tariqati xorijda L. Massignon, A. Arberri, M. Smitt, X. Kisling, F. Mayer, A. Shimmel, R. Xartman, F. Ko'prulu, J. Trimingem, K. Erason, Idris Shox, Devin Di Uis; Rossiyada A. Krimskiy, I. Petrushevskiy, E. Bertels; O'zbekistonda Fitrat, A. Sa'diy, E. Rustamov, B. Qosimov, I. Haqqulov, N. Hasanov tomonidan o'rganilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Yassaviy hikmatlarini o'rganish asosida shaxs kamolotini belgilovchi psixologik kontseptlar haqida tasavvurga egalikni aniqlash so'rovnomasi ishlab chiqilgan bo'lib, faktorli tahlil mezonini asosida so'rovnoma mulohazalari ahamiyatli va ahamiyatsiz birliklarga ajratilganligi asoslangan;

Yassaviy hikmatlarining psixologik tahlili asosida talaba-yoshlarda ma'naviy ehtiyojlar namoyon bo'lishi, ulardagi o'quv faoliyatidagi turli xil axloqiy vaziyatlar, topshiriqlarni o'zlashtirishda yuqori harakatchanlik, sinchkovlik, zukkolik hamda o'zini nazorat qila olish kabi omillar bilan belgilanishi aniqlangan;

Yassaviy hikmatlarining psixologik tahlili asosida komil inson konsepsiyasining psixologik xususiyatlari talaba yoshlarda aniqlanib, inson-e'tiqodning yuqoriligi, sobitqadamlik, boshqalarga nisbatan beg'arazlik, haqgo'ylik, kamtarlik, adolatlilik, fidoyilik, insonparvarlik va vatanparvarlik sifatlarining yuqori darajada rivojlanganligi isbotlangan;

komil insonga xos sifatlar shakllanishida ma'lum bir vaziyatlarni yengib o'tuvchi xulq ya'ni matonat, taqdirga ishonch, voqelikni yengib o'tish, o'zini o'zgartirish, ijobiy tafakkur va emotsiyalarni nazorat qilish omillari ijobiy ravishda ta'sir etishi dalillangan.

Yassaviy Markaziy Osiyo madaniyati tarixida ilk turkiyzabon mutasavvif shoir sifatida ma'lumdir. Uning tasavvufni targ'ib etuvchi turkiyda yozilgan she'rlari tilining xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhur bo'lib ketdi. Xoja Ahmad Yassaviy juda ko'p mutasavvif donishmandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ma'lumki, "Yassaviya" tariqatidan keyin Markaziy Osiyoda "Naqshbandiya" (Xo'jagon), "Bektoshiya" kabi ikki yirik tariqat paydo bo'ladi.

Yassaviy ham o'zining piri buzrukvori Shayx Yusuf Hama-doniya o'xshab mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmaganini, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lib yashaganligini uning ba'zi hikmatlaridan ham bilsa bo'ladi. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy beayov tanqid qiladi:

Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o'taro,

Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketaro,

Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,

To'rt oyovlik cho'bin ot bir kun sango yetaro.

Dunyo uchun g'am yema, haqdin o'zgani dema,

Kishi molini yema, sirot uzra tutaro.

Ahli ayol, qarindosh, heh kim bo'lmaydir yo'ldosh,

Mardona bo'l g'arib bosh, umring yeldek o'taro.

Qul Xoja Ahmad toat qil, umring bilmam necha yil

Asling bilsang, obi gil, yana gilga ketaro.

Darhaqiqat, Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat — "Yassaviya"ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Mavarounnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy tarixida keng ma'lum bo'lgan, mutasavvif donishmand, insonparvar shoir hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Xoja Ahmad Yassaviy (Yassi yaqinidagi Sayram shahri, taxminan 11-asrning 2-yarmi — 1166) — tasavvufning mashhur namoyandalardan biri, turkiy xalqlarning buyuk shoiri. Otasi Shayx Ibrohim javonmardlik tariqatiga mansub nufuzli zotlardan bo'lgan. Yassaviy chig'atoy tilida ijod qilgan. Yassaviy tug'ilgach, ko'p o'tmay onasi — Muso Shayxning qizi Oysha xotun vafot etadi. 7 yoshida otasidan ham ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg'ul bo'ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko'chib borgach, ustozi Arslon bobo bilan uchrashadi va undan tahsil oladi ("Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim..."). Yassaviy Yassida botin ilmi sirlarini mukammal o'zlashtirgan. O'sha zamonlarda ilm-ma'rifatning Movorounnahrda markazlaridan bo'lgan Buxoroda Turkistonning turli tomonlaridan tolibi ilmlar yig'ilishgan. Arslon bobo ko'rsatmasi bilan Yassaviy ham Buxoroga boradi. Davrning eng peshqadam olimi va sofiysi Shayx Yusuf Hamadoniy bilan uchrashib, unga murid tushadi. Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o'rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy, Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslahat bo'lib, Yusuf Hamadoniy muridlari qatoridan o'rin oladi. Alisher Navoiy Yassaviy to'g'risida "Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g'oyatsiz va shoh-u gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish", — deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g'oyalarni omma ko'ngliga chuqur singdirish maqsadida she'riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta'kidlashicha, Yassaviyning "adabiyotda tutgan yo'li sodda xalq shoirlarimizning tutg'on yo'lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she'rlar bilan barobar". U yozgan asari Nafaqat turkiy Xalqlarga balki butun Dunyoga Nasihat bo'ladigan asar yozgan. Uning hikmatlarini o'rganish, insonlarga hikmatlarning asl ma'no — mazmuni anglatish dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Ahmad Yassaviy ijodi ham insonning o'zligini anglash, ruhiy olamini tushunish, borliqda o'zini qanday namoyon qilmoqlik lozim shu xususida boy ma'naviy me'ros qoldirgan. Uning eng boy merosi "Devoni hikmat" hikmatlaridir.

"Devoni hikmat" insonni nafsparastlik, ma'rifatsizlik va yirtqichlashuvdan muhofaza etadi. "Devoni hikmat" odam farzandini shaytoniy hiylalar, hayvoniy qutirishlardan asraydi. Bu bebaho asar hirsu – havoga berilib "odamiyatni pok-pokiza yeb" qo'yish kulfat va musibatlardan ogohlantiradi. Hamma gap uni qanday o'qish va qanday anglash, anglabgina qolmasdan amal qilishda.

"Yassaviya" tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo'lmish "Hikmat"da mufassal bayon etilgan. XII asrdagi turkiyzabon she'riyatning ajoyib namunasi bo'lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan "Hikmat" asarida "Yassaviya" ta'limotidagi poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida Insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

#### **ADABIYOTLAR**

1. Ahmad Yasaviy. Devoni hikmat (nashrga tayyorl. A.Abdushukurov). — T.:1992. 2. O'zbek adabiyoti namunalari (tuz. prof. Fitrat). — T.: 1928; 3. Ahmad Yasaviyning yangi topilgan hikmatlari. «Jahon adabiyoti» jurn. 2002, №10.
2. Davletshin M., Krbiliyat va uning diagnostikasi, T., 1979;
3. Tokareva V., Talaba shaxsining axloqiy rivojlanish psixologiyasi, T., 1989;
4. G'oziyev E., Psixologiya fani XXI ayerda, T., 2002;
5. G'oziyev E., Psixologiya, T., 2003;
6. Qodirov B., Layoqat psixologiyasi, T., 1989;
7. Shoumarov G., Oila psixologiyasi, T., 2000;
8. Karimova V., Ijtimoiy psixologiya, T., 1994